

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ISMAILOV AKMAL MAXSUDOVICH

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA QURILISH SANOATI
KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Ismailov Akmal Maxsudovich

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qurilishi sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish uslubiyotini takomillashtirish..... 3

Исмаилов Акмал Махсудович

Совершенствование методологии управления экономическим потенциалом предприятий строительной промышленности в условиях цифровизации экономики..... 35

Ismailov Akmal Maksudovich

Improving the methodology of managing the economic potential of construction industry enterprises in the conditions of digitalization of the economy..... 67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 71

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ISMAILOV AKMAL MAXSUDOVICH

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA QURILISH SANOATI
KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023 yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Iqt465 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya ishi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saytida (www.reu.uz) va "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) Axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **To'rayev Baxodir Xatamovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xoshimov Akrom Abdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xonkeldiyeva Go'zal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot **Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.12.2020.I.09.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «10» avgust kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxo'jayev ko'chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54, e-mail: rector@tstu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxo'jayev ko'chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54)

Dissertatsiya ishi avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil "___" _____ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi.)

O.K. Abduraxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d.,
professor

M.I. Akbarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.n., dotsent

B.X. Turayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashuvi va raqamlashuvining kuchayishi iqtisodiyot tarmoqlari iqtisodiy salohiyatidan foydalanish va uni samarali boshqarishning sezilarli darajada oshirishini taqozo etmoqda. Iqtisodiy salohiyatni boshqarish nafaqat mamlakat, balki korxonalar darajasida ham samarali amalga oshirilishi talab etilmoqda. Muntazam oʻzgarib boruvchi tashqi muhitda zamonaviy qurilish sanoati korxonalarining optimal rivojlanishi va faoliyatini taʼminlaydigan salohiyatga erishish mazkur yoʻnalishdagi asosiy muammolardan biriga aylanmoqda. Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasini oshirish qurilish korxonalariga qoʻshimcha raqobat ustunligini qoʻlga kiritish va bozorda yetakchi oʻrinlarni egallash maqsadida nafaqat texnologiyalarni, balki qurilish jarayonini tashkil etish usullarini ham takomillashtirish imkonini beradi. “Qurilish sanoati sohasi hozirda infratuzilma obyektlari va sanoat loyihalaridan turar-joy hamda tijorat koʻchmas mulklariga oʻtish davrini boshidan kechirmoqda. Bu esa yuqori surʼatdagi urbanizatsiyalashuv bilan bogʻliq. Jumladan, dunyo miqyosida 2021 - 2025 yillar oraligʻida turar-joy va tijorat koʻchmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion dollarga oʻsishi kutilmoqda”¹. Bu esa beqaror ish sharoitida faoliyat yuritayotgan qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini munosib baholash va samarali boshqarish masalalariga alohida eʼtibor qaratishni talab etmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyat darajasini oʻrganish va uni baholashga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyat darajasini shakllantirish, uni miqdoriy baholash, bu boradagi turli-tuman nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish, tarmoqning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va mazkur korxonalarining iqtisodiy faoliyati natijasida umumiy manfaatning ortib borishini tadqiq etish, iqtisodiy salohiyatini baholash va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, qurilish sanoati korxonalarining raqobat muhitini yanada yaxshilash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda zamonaviy qurilish sanoati korxonalarini tashkil etish va boshqarishda iqtisodiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida yuqori iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzining iqtisodiy salohiyatini samarali boshqaradigan va bozorga turli yangiliklarni muvaffaqiyatli olib kiruvchi korxonalar yuqori raqobatdosh ustunliklarga ega boʻladi. Shunga koʻra, Oʻzbekistondagi qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini boshqarish masalalariga yetarlicha eʼtibor qaratish hamda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy salohiyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirishga oid vazifalar belgilab

¹ <https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#>:

berildi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi “iqtisodiy salohiyat” tushunchasining mazmunini nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko‘p qavatli uy-joylar qurishgacha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish, qurilish obyektlarini ro‘yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish asosida qurilish tarmog‘ini boshqaruv idoralari real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari bilan uyg‘unlashtirish, iqtisodiy salohiyatni boshqarishda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash tizimini ishlab chiqish, qurilish sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish uslubiyotini takomillashtirish masalalari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology (AQSH), Stanford University (AQSH), Harvard University (AQSH), University of Oxford (Buyuk Britaniya), ETH Zurich

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи куйидаги манбалар асосида тайёрланган: <https://www.uni-bonn.de/en>; <https://www.unimi.it/it>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.itdp.org/>; <https://www.eea.europa.eu/>; <https://www.iru.org/ru>; <https://www.rand.org>; <https://www.rtri.or.jp/eng/>; <https://www.unipage.net/>; <https://en.unesco.org/silkroad/>; <http://www.silkroadresearchcenter.org>; <http://www.bjtrc.org.cn>; <http://www.en.ustc.edu.cn>; www.iptran.ru; <https://logistics.hse.ru>; www.niitk.kz; www.carecprogram.org; <http://www.traceca-org.org>; <http://government.ru/gov/responsibilities/>.

(Shveysariya), National University of Singapore (Singapur), Tsinghua University (Xitoy), Australian National University (Avstraliya), The University of Tokyo (Yaponiya), University of Toronto (Kanada), Seoul National University (Janubiy Koreya), LudwigMaximilians-Universitat Munchen (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Ural davlat iqtisodiyot universiteti, Rossiya oliy iqtisodiyot maktabi (Rossiya), Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy salohiyatning ta'siriga oid tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy va amaliy natijalar olingan: mehnat salohiyatining korxonalar iqtisodiy jarayonlaridagi o'rni (University of Chicago, AQSH), uni ishlab chiqarish omili ekanligini intellektual kapitalda ifodalashini baholash (University of NebraskaLincoln, AQSH), globallashtirish sharoitida mehnat salohiyatining mintaqaviy rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan (University of Lodz, Polsha), ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat salohiyatining jamg'arilishi va inson resurslarining o'sib borishidagi ahamiyati (Edinburgh Napier University, Buyuk Britaniya; University of Limerick, Irlandiya; The University of the West Indies, Shimoliy Amerika), iqtisodiy o'sishning boshqaruv salohiyatiga bog'liqligi va uning rivojlanish konsepsiyasi (University of Oregon, AQSH), mehnat salohiyatini tashkil etuvchi intellektual kapitalning tadbirkorlik resursi ekanligi (Aston University, Buyuk Britaniya), korxonalarda mehnat va boshqaruv salohiyatining mohiyati, unga falsafaviy va texnikaviy qarash asosida korxonalar aktivlari elementlarini takomillashtirish asosida yaxshilash (Islamic Azad University, Eron), mehnat salohiyati sifatida intellektual kapitalni qimmatli resursga aylanishi (School of Management and Bass Center of Leadership, Binghamton University, State University of New York, AQSH), mehnat unumdorligi masalalari (International Polytechnic Institute of Viana do Castelo, Portugaliya), riskning boshqaruv salohiyatiga ta'siri (University of Pennsylvania, AQSH), ishlab chiqarish salohiyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Universitas Jenderal Soedirman, Indoneziya), inson tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyat konsepsiyasi bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti; G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Universiteti, Rossiya).

Jahon miqyosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy salohiyatning modernizatsiyalashga ta'sirini takomillashtirish borasida, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy salohiyatning ta'sirini e'tiborga olgan holda oshirish; korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashga oid nazariy va uslubiy qarashlarni takomillashtirish; korxonalar iqtisodiy salohiyatining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mehnat salohiyati, innovatsion va boshqaruv salohiyatining korxonalar iqtisodiy salohiyatiga ta'sirini baholash; korxonalar iqtisodiy salohiyatini samarali boshqarishning

korxonalar iqtisodiy jihatdan o‘rnatilgan erishishning ilmiy asoslarini takomillashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati muammolarining turli yo‘nalishlari jumladan, uni takomillashtirish jihatlari bilan bog‘liq jarayonlar xorijiy ilmiy maktab vakillari Y.Shumpeter, G.Mensh, J.Forrester, I.Ansoff, E.Dixit, X.Xermgen, F.Kotler, D.Liti, K.Allen³, D.Bell, P.Draker, B.Lundvall, N.Mazur, N.Rozenberg, R.Nelsonlar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur yo‘nalishda rossiyalik iqtisodchi olimlardan S.D.Ilenkov, V.Ivanov, R.Fatxuddinov, A.Porshneva, K.Puznya, A.Rumyansev, A.I.Plotnikov, K.Dryus, YE.G.Yegorov, S.R.Agarkov, J.Kuinn, K.Kross va boshqalarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiy salohiyatni baholash hamda uni boshqarish masalalari tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish kompleksining innovatsion rivojlanishi va uning moddiy-texnik bazasi iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari SH.N.Zaynutdinov, M.K.Ziyayev, A.N.Djabriyev, R.I.Nurimbetov, B.D.Kalmetov, V.A.Kazimov, R.I.Gimush, S.M.Niyazov, A.Suyunov, E.X.Mahmudov, SH.K.Qurbaniyazova⁴, M.A.Ikramov, M.A.Mahkamova, N.M.Maxmudov, A.F.Rasulev G.J.Allayeva ilmiy tadqiqot ishlarida ayrim tomonlari ko‘rib chiqilgan⁵.

³ Аллен К. Продвижение новых технологий на рынок. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 455 с.; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London: Pinter Publishers, 2002; Мазур Н.З. Инновационная экономика: инновационные системы. Интеллектуальная собственность / Н.З. Мазур. –Самара: Издательство СНЦ РАН», 2001; Иванов В.В. Национальные инновационные системы: теория и практика. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов; М. : Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.; Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / М., 2016.; Radosevic S. Region Innovation Systems in Central and Eastern Europe: Determinants, Organizers and Alignments. –Brighton: University of Sussex, 2012.

⁴Зайнутдинов Ш. Н., Нуриббетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017);Зияев М.К.,Давлетов И.Х. Совершенствование управления инвестиционно-строительным процессом в условиях углубления рыночных отношений // Инвестиционный потенциал банков: вызовы, возможности и перспективы: Матер. между. науч.-практ.конф. БФА РУз, 26-27 сентября 2008 г. – Ташкент: “Молия”, 2008. - С.46-49; Кальметов Б.Д., Казимов В.А., Гимуш Р.И. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография Ташкент, 2006. 186 с.; Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно-технической базы строительства.-Т.: Изд-во«Fan va texnologiya», 2010.-176с.; Суянов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов.- Т.: «Fanvatexnologiya», 2010.-164 с.; Махмудов Э. Х. Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) Ташкент: Иктисодиет, 2013. 131 с.; Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-эксперт, 2017 йил, №11(119). (08.00.00; № 3).

⁵ Икрамов М.А. , Алимов Е.А. Формирование спроса , как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с . 38-44, 2019; Махкамова М.А. Теория инновационного менеджмента. Монография. –Ташкент, «Фан ва технология»,2019; Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида санаат тармоқларини ривожлантириш. Монография. Тошкент 2020й; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. –М.: Нуриббетов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бoшқарилган стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 2010 йил, № 2–Б. 73-75.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsada, biroq mamlakatimizda ushbu sohadagi tadqiqotlar muhim qimmatga ega ekaniga qaramasdan, hozirgi kunda qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini faollashtirish tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida respublika qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarni baholashning ilmiy jihatlarini rivojlantirish;

qurilish sanoati korxonalari innovatsion va boshqaruv salohiyatlarini boshqarish samaradorligini baholashning me'zon va usullarini ishlab chiqish;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatining shakllanishi va ulardan foydalanishni tizimlashtirish;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini faollashtirishning ssenariylarini ishlab chiqish;

iqtisodiy salohiyat elementlaridan samarali foydalanish asosida qurilish sanoati korxonalarining 2035 yilgacha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, so'rovnoma, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra faqat mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi "iqtisodiy salohiyat" tushunchasining mazmuni ehtimoliy

salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda, qurilish sanoati korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari tizimi, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisi sifatida takomillashtirilgan;

har bir hududda bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish taklifi asoslangan;

qurilish obyektlarini ro'yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish asosida qurilish tarmog'ini boshqaruv idoralari real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish taklif etilgan;

iqtisodiy salohiyatni boshqarishda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo'yicha «yuqori» ($1,2 \leq I_s$), «barqaror» ($1,0 \leq I_s < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,7 \leq I_s < 1,0$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq I_s < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash asoslangan;

qurilish sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2035 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot sharoitida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichlari aniqlangan va ularni integrallashtirish zarurligi ko'rsatilgan;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan;

ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy salohiyatni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslublar asosida moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish, innovatsion, mehnat, boshqaruv va marketing salohiyatlarining o'zaro bog'liqligi va ularning natijalarini baholash mumkinligi asoslangan;

qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati natijalari asosida iqtisodiy salohiyatini baholash uslubiyoti shlab chiqilgan;

turli mulkchilik shakllariga ega qurilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda iqtisodiy salohiyatning roli va uni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan;

qurilish sanoati korxonalari samaradorligini oshirish va iqtisodiy salohiyatini faollashtirishning ssenariylarini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning o'rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning qurilish sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o'tganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy

ahamiyati qurilish sanoati korxonalari tizimini iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, qurilish tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vazirlik va idoralar tomonidan qurilish sanoati korxonalari tizimi rivojlanishi va raqobatbardoshligiga baho berishda, undagi muammolarni aniqlashda va boshqarishda, qurilish tarmog‘i tizimining rivojlanish istiqbollari belgilashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini samarali boshqarishni ta‘minlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra faqat mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig‘indisi sifatida talqin qilinuvchi “iqtisodiy salohiyat” tushunchasining mazmuni ehtimoliy salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda, qurilish sanoati korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash me‘zonlari tizimi, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig‘indisi sifatida takomillashtirilgan nazariy-uslubiy asos oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan «Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig‘indisi sifatidagi “iqtisodiy salohiyat” tushunchasi mazmunining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, oliy ta‘lim tizimi talabalari tomonidan ushbu soha bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

har bir hududda bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko‘p qavatli uy-joylar qurishgacha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 fevraldagi PQ-139-son qaroriga 6-ilova bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 27 iyundagi 05/15-1326-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini samarali boshqarish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirida sof foydaning 10-15 foizga oshishiga erishilgan;

qurilish obyektlarini ro‘yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish asosida qurilish tarmog‘ini boshqaruv idoralari real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari bilan uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 noyabrdagi PQ-425-son qarori bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 27 iyundagi 05/15-1326-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida kamchiliklar bartaraf etilib, mazkur platformada qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati ko‘rsatkichlarining 1,19 koeffitsiyent birligida oshishiga erishilgan;

iqtisodiy salohiyatni boshqarishda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo‘yicha «yuqori» ($1,2 \leq I_s$), «barqaror» ($1,0 \leq I_s < 1,2$), «o‘rtacha xavfli» ($0,7 \leq I_s < 1,0$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq I_s < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash taklifi “Trest 12” Aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 14 dekabrda 01/741-sonli buyrug‘i asosida qurilish sanoati korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 27 iyundagi 05/15-1326-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish sanoati korxonalarini pog‘onalashtirilgan saralash tizimini joriy etishga va ushbu chora-tadbirlar qurilish sanoati korxonalari foydasini 23 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

qurilish sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2035 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 27 iyundagi 05/15-1326-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish sanoati korxonalarini samarali boshqarish ssenariylari ishlab chiqilgan va ular faoliyatini optimallashtirish uchun imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, 13 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan. 10 ta ilmiy ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, 254 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotdagi raqamli o'zgarishlar sharoitida korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan, qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish xususiyatari yoritilgan va shu bilan birga qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarining shakllanishi tadqiq etilgan.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasiga berilgan turli ta'riflar va yondashuvlardan xulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki, nafaqat mavjud bo'lgan balki ehtimoliy salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda talqin etilishi lozim. Bizningcha qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyati – uslubiy yondashuvga ko'ra faqat mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi “iqtisodiy salohiyat” tushunchasining mazmuni ehtimoliy salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda, qurilish sanoati korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari tizimi, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisidir.

Bu esa qurilish sanoati korxonasi tashqi muhitga bog'liq holda o'zaro ta'sir jarayonida tayyor qurilish mahsulotlariga (xizmatlariga) bo'lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash qobiliyatidir.

Bizga ma'lumki qurilish sanoati korxonalarini boshqarishda umumiy manfaat ortib borishi iqtisodiy qonuni yuzaga keladi. Ya'ni umumiy davriylikda inson manfaatlari naflilikning kamayib borishidan farqli ravishda ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa shu bilan izohlanadiki, inson biror bir boylikka ega bo'lganda u ushbu boylikning miqdori bilan chegaralanib qolmaydi, aksincha u ko'proq boylik orttirish harakatiga tushadi.

Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyatining manfaatdorlik indeksini, biz tomondan quyida keltirilgan formula asosida joriy yil ko'rsatkichlarining oldingi yildagi ko'rsatkichlariga nisbati orqali aniqlash taklif etilgan.

$$\text{Min} = \text{Kj}/\text{Ko} \quad (1)$$

(1) - qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyatining manfaatdorlik indeksi.

Qurilish sanoati korxonalarida inson manfaatdorlik koeffitsiyentini baholash barcha manfaatdorlik indekslarining o'rtacha ko'rsatkichlari orqali aniqlash mumkin bo'lib, uni quyida keltirilgan formula ko'rinishida izohlash mumkin:

$$IM_n = (M_{1,2}/M_{1,1} + M_{2,2}/M_{2,1} \dots + M_{n,2}/M_{n,1})/n \quad (2)$$

(2) - qurilish sanoati korxonalarida inson manfaatdorlik koeffitsiyenti.

Ushbu koeffitsiyentlar $0 \leq IM_n < 1$ bo'lganda manfaat past darajada yoki mavjud emas, $IM_n = 1$ ga teng bo'lganda me'yoriy manfaat mavjudligi, $1 < IM_n$ 1 dan yuqori bo'lganda manfaatning ortib borishi qonuni amal qilishi bilan izohlash mumkin. Keltirilgan formuladan shuni ko'rish mumkinki insonning iqtisodiyotdagi o'rnini, ya'ni uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash, kelajakda rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish uchun muhim hisoblanadi.

Qurilish majmuasi butun qurilish sanoatiga xos bo'lgan bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Qurilish korxonalarining iqtisodiy salohiyati ishlash mexanizmlarida o'z ifodasini topgan qurilish sanoatining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi.

1. Qurilish obyektlarining harakatsizligi va ishlab chiqarish vositalari hamda asbob-uskunalarining harakatga egaligi.
2. Qurilish ishlab chiqarish jarayonining yuqori kapital hajmiga ega ekanligi.
3. Texnologik jarayonning atrof-muhit ta'siriga bog'liqligi.
4. Ishlab chiqarish siklining davomiyligi va qurilish mahsulotlarining yuqori smeta qiymatiga egaligi.
5. Maxsus to'lov shakllaridan foydalanish.
6. Hamkorlikning o'ziga xos shakllari mavjudligi.
7. Brigada ishini tashkil etishdagi mavjud qiyinchiliklar.
8. Qurilish ishlab chiqarishining katta moddiy sarfga ega ekanligi.

Bizningcha, qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyatini boshqarish - bu belgilangan maqsadlarga erishish va korxonaning faoliyat yuritishi hamda rivojlanishini ta'minlash uchun mavjud iqtisodiy salohiyatni optimallashtirish hamda oqilona foydalanish, uni yanada oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shu bilan birga amalga oshirish jarayonidir.

Aniqlangan xususiyatlar qurilish sanoati iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot va sanoatning boshqa tarmoqlari iqtisodiyotidan sezilarli farq qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Qurilishdagi bir xil iqtisodiy ko'rsatkichlar, boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, butunlay boshqacha tarzda aniqlanadi. Qurilish sanoatining o'ziga xos xususiyatlari qurilish korxonalarini faoliyati natijalariga va shunga mos ravishda ularning iqtisodiy salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy salohiyat birinchi navbatda korxonaning faoliyat ko'rsatayotgan muhitning ta'siriga bog'liq hisoblanadi (1-jadval).


Qurilish sanoati korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy salohiyatni boshqarishga bo'lgan qarashlar⁶

O'ziga xos xususiyatlar	Tavsifi
1. Qurilish obyektlarining harakatsizligi va ishlab chiqarish vositalari, jihozlarining harakatga egaligi	Qurilish mahsulotlarini tasdiqlangan loyiha bo'yicha ma'lum bir joyda amalga oshiriladi va ishchilar uchun vaqtinchalik inshootlar, materiallarni saqlash uchun omborlar va boshqalarni yaratishni talab qiladi, bundan tashqari, ba'zi materiallarni qurilish maydonlarida saqlash mumkin emas. Shu munosabat bilan, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini saqlashda, boshqariladigan mashinalar va mexanizmlarning, qurilish materiallari va mehnat resurslarining roli oshadi, shuning uchun qurilish korxonasi iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda ishlab chiqarishning mavjud omillaridan foydalanish intensivligi ta'sirini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.
2. Yuqori kapital hajmiga egaligi va qurilish ishlab chiqarishining moddiy sarfi yuqoriligi	
3. Texnologik jarayonlarning atrof – muhitga to'g'ridan to'g'ri ta'siri mavjudligi	Qish mavsumida qurilish ishlari yilning ushbu vaqtida ishlash uchun qulay bo'lgan qurilish materiallari va asbob-uskunalaridan foydalanish zaruratini paydo qiladi. Shu tufayli qurilish-montaj ishlari narxlarining oshishiga olib keladi. Kichik korxonalaridan farqli o'laroq, yirik korxonalar uchun mavsumiylikning ta'siri unchalik katta emas, chunki ular qurilish vaqtini buzmaslik uchun bunday xarajatlarni to'lay oladilar. Shuning uchun qurilish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilganda, moddiy-texnik resurslardan foydalanish samaradorligini hisobga olish zarur hisoblanadi.
4. Ishlab chiqarish siklining davomiyligi va qurilish mahsulotlarining yuqori smeta qiymatiga ega ekanligi	Qurilish davomiyligini yillar bilan hisoblash mumkin, shuning uchun yoqilg'i-moylash materiallari narxlarining muntazam ravishda oshib borishini hisobga olish lozim. Vaholanki, qurilish materiallari narxlarining oshishi aksariyat hollarda korxonalarining aybi bilan sodir bo'lmaydi, balki obyektiv holatlar tufayli sodir bo'ladi. Ba'zi hollarda korxonalar aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirishi mumkin, bu asosan qarz mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shunday qilib, qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilganda, moddiy-texnik resurslardan tashqari, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini va ulardan foydalanish samaradorligini baholashni talab etadi.
5. To'lovlarning maxsus shakllari mavjudligi	
6. Hamkorlikning o'ziga xos shakllari mavjudligi	Hamkorlikning o'ziga xos shakllari mavjudligi bu bir korxonada yoki turli korxonalarda ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish va ishlab chiqarish jamoalaridagi ishchilar uyushmasi hamda ishchilar o'rtasida oqilona mehnat taqsimotini nazarda tutadi. Binobarin, mehnat resurslarini samarali boshqarish korxonaga nafaqat ishchilar ishlab chiqarishni ko'paytirishga, asbob-uskunalar, qimmatbaho yarim tayyor mahsulotlar va materiallardan yaxshiroq foydalanishga, balki uning iqtisodiy salohiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.
7. Brigada ishini tashkil etilishi	
8. Ixtisoslashuvning maxsus shakliga ega ekanligi	
	Korxonalarining ixtisoslashuvi qurilish faoliyatining bir necha turlarini diversifikatsiya qilishni nazarda tutmasligi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy salohiyatni baholashda qurilish sanoati korxonasining ishlab chiqarish imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim

Qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyati tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, mehnat, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turlari biz tomondan shakllantirilgan (1-rasm). Qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyatini boshqarish zarurati mavjud salohiyat turlaridan samarali foydalanishda sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatishni talab qiladi va iqtisodiy salohiyatini boshqarish barcha mavjud salohiyat turlarini, jumladan ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va innovatsion salohiyat turlarini boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va shakllari asosida tashkil etish demakdir.



1-rasm. Qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyati tarkibi⁷.

Qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyati tarkibiy qismlarini biz tomondan taklif etilgan manfaatdorlik indeksi asosida baholash optimal mahsulot ishlab chiqarish miqdorini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga korxonalarning zararsizlik nuqtalarini aniqlash va parognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini**

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

baholashning uslubiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi bobida innovatsion salohiyatni baholash uslubiyotini takomillashtirish asosida qurilish sanoati korxonalarini boshqarish asoslangan, qurilish sanoati korxonalarida boshqaruv salohiyatini baholash uslubiyotining shakllanishi o‘rganilgan va shu bilan birga qurilish sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatning shakllanishi, uni baholash hamda undan foydalanish tizimlashtirilgan.

Qurilish sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati ko‘rsatkichlarining tarkibi va tuzilishi masalasida korxonaning innovatsion o‘shirish imkoniyatlarini to‘liq tavsiflovchi zarur va yetarli miqdordagi ko‘rsatkichlarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Korxonaning innovatsion faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini, uning ko‘lami va miqdorini belgilovchi omillar, birinchi navbatda, korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati, korxonaning texnikaviy salohiyati, innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati va innovatsiyalarning turmush darajasiga ta‘sir salohiyatlari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, korxonaning innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi funksional guruhlarni korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati orqali ushbu korxonadagi ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ishchi va xodimlar, ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar va korxonada bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘rsatkichlari umumlashtiriladi (2-jadval).

Korxonaning innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati masalasida korxonaning innovatsiyalarga kiritilgan investitsiyalari ulushi va yaratilgan mahsulot va xizmatlarda innovatsion mahsulotlarning ulushlari haqida gap boradi. Innovatsiyalarning turmush darajasiga ta‘sir salohiyati esa har bir xodimga to‘g‘ri keluvchi innovatsion tovar va xizmatlar ulushini aniqlash imkonini beradi. Bunda yana bir jihatga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladiki, korxonaning iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchi innovatsion salohiyat boshqa salohiyat turlari kabi aynan korxonadagi innovatsion faoliyat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan innovatsion salohiyat tarkibiy qismlari orqali qurilish sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash mumkin bo‘ladi. Natija ko‘rinishida barcha omillarning o‘rtacha integral ko‘rsatkichlarini hosil qilish orqali aniqlanadi. Biz tmonondan qurilish sanoati korxonasining innovatsion salohiyati integral koeffitsiyentini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash taklif etilgan.

$$IN_{sqk} = (IT_s * IT_i * IN_s * IT_{ds} * IM_i)^{1/5} \quad (3)$$

Qurilish sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatni baholashda muhim o‘rin tutadigan salohiyat turi mavjud bo‘lib uni bevosita aniqlash va ma‘lum o‘lchovlar asosida tahlil qilish orqali korxonadagi boshqaruv jarayoniga baho berish imkoniyati yuzaga keladi.

Qurilish sanoati korxonalarini rahbarining va barcha bo‘g‘imlardagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish asosida boshqaruv salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri bu shaxsiy va kasbiy fazilatlar to‘plamini aniqlashdir. Samarali rahbar sifatlarini modellashtirish boshqaruv salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish

masalalarining butun majmuini hal qilishda muhim uslubiy va amaliy vazifa bo'lib hisoblanadi (3-jadval).

2-jadval

Qurilish sanoati korxonasi innovatsion salohiyati tarkibiy qismlarini aniqlashga bo'lgan yondashuv

№	Ko'rsatkichlar	Formula	Izoh
1	Korxonaning ilmiy-tadqiqot darajasi	$I_{f.u} = I_{i.f.} / I$	I_{f.u.} - ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishchi va xodimlar ulushi; I_{i.f.} - ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishchi va xodimlar soni.
2		$I_{i.u} = I_{i.d.} / I$	I_{i.u.} - ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar ulushi; I_{f.u.} - ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar soni; I_{i.f.} - ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar soni.
3		$T_{i.u} = T_{i.i} / H$	T_{i.u.} -ilmiy tadqiqot ishlari ulushi; T_{i.i.} -ilmiy tadqiqot ishlari soni; H -jami ishlab chiqarish soni.
4	Korxonaning texnikaviy darajasi	$K_{y.a} = Q_k / Q_b$	K_{y.a.} -asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti; Q_{k.} -asosiy fondlarning qoldiq ko'rsatkichi; Q_{b.} -asosiy fondlarning boshlang'ich ko'rsatkichi
5		$Q_k = A_b - A_y$	Q_{k.} -asosiy fondlarning qoldiq ko'rsatkichi; A_{b.} -amortizatsiya ajratmalarining boshlang'ich qiymati; A_{y.} -amortizatsiya ajratmalarining yig'ilgan qiymati.
6		$A_{y.a} = A_k / A_o$	A_{y.a.} -asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti; A_{k.} -asosiy fondlarning kiritilish qiymati; A_{o.} -asosiy fondlarning davr oxiridagi qiymati.
7		$X_{i.k} = X_{t.i} / X_{a.i}$	X_{i.k.} -Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar koeffitsiyenti; X_{t.i.} -texnik innovatsiyalarga qilingan xarajatlar; X_{a.i.} -jami amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar.
8		$X_{a.k} = X_{a.i} / X_j$	X_{a.k.} -amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar koeffitsiyenti; X_{a.i.} -jami amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun qilingan xarajatlar; X_{j.} -jami qilingan xarajatlar.
9	Innovatsiyalar natijaviyligi darajasi	$I_u = I_h / I_h$	I_{u.} -innovatsiyalarga kiritilgan investitsiyalar ulushi; I_{h.} -kiritilgan investitsiyalar hajmi; I_{h.} -ishlab chiqarish hajmi.
10		$I_{m.u} = I_m / M_{y.a}$	I_{m.u.} -yaratilgan mahsulot va xizmatlarda innovatsion mahsulotlarning ulushi; I_{m.} -innovatsion mahsulotlar miqdori; M_{y.a.} - jami yaratilgan mahsulot va xizmatlar.
11	Innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri	$X_{i.t} = I_{t.x} / I$	X_{i.t.} -har bir xodimga to'g'ri keluvchi innovatsion tovar va xizmatlar ulushi; I_{t.x.} - innovatsion tovarlar va xizmatlar miqdori.
12	Ehtimoliy innovatsion salohiyat darajasi (koeffitsiyenti)	$I_{m_i} = (M_{1.2} / M_{1.1} + M_{2.2} / M_{2.1} + \dots + M_{n.2} / M_{n.1}) / n$	I_{m_{n.}} - ehtimoliy innovatsion salohiyat koeffitsiyenti; M_{n.1.} - manfaat miqdori; n- manfaatlar soni.

Qurilish sanoati korxonasi faoliyati boshqaruv salohiyatini aniqlashda biz tomondan boshqaruv samaradorligini baholash maqsadida qurilish korxonasi innovatsion boshqaruv salohiyati ko'rsatkichlari bo'lgan foydalilik koeffitsiyenti, ehtimoliy salohiyat koeffitsiyenti, mehnatning manfaatliligi koeffitsiyenti, ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti hamda ishchi va xodimlarning ishdan bo'shatilganlik

⁸ Iskandarov E.B., "O'zbekiston qurilish sanoati korxonalarida barqaror innovatsion rivojlanishni ta'minlash" mavzusidagi 08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022 y. b-13.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko'rsatkichlari kabi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdor nisbiy ko'effitsiyenti sifatida (4)- boshqaruv salohiyatini baholash taklif etilgan.

$$B_{S_{bk}} = (F_k * I_{mb} * M_{m.k} * R_{Dk} * I_{Xb.k})^{1/5} \quad (4)$$

3-jadval.

Rahbar xodimlarning faoliyati boshqaruv salohiyatini baholash yondashuvi¹⁰

	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash usuli	Shartli belgilar mazmuni
1	Foydalilik ko'effitsiyenti	$F_k = F_j / F_o$	F_j -joriy davrda olingan sof foyda; F_o -o'tgan davrda olingan sof foyda.
2	Ehtimoliy boshqaruv salohiyati ko'effitsiyenti	$I_{M_b} = (M_{1.2} / M_{1.1} + M_{2.2} / M_{2.1} \dots + M_{n.2} / M_{n.1}) / n$	I_{mn} -manfaatdorlik ko'effitsiyenti; M_{n.1} - manfaat miqdori; n - manfaatlar soni.
3	Mehnatning manfaatliliigi ko'effitsiyenti	$M_{m.k} = (D_{Y.j} / X_{j.j}) / (D_{Y.o} / X_{j.o})$	D_{Y.j} -joriy davrdagi korxonaning yalpi daromadi; X_{j.j} -joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari; D_{Y.o} - o'tgan davrdagi korxonaning yalpi daromadi; X_{j.o} - joriy davrdagi korxonaning jami xarajatlari.
4	Ishchi va xodimlar real daromadi ko'effitsiyenti	$R_{Dk} = R_{Dj} / R_{Do}$	R_{Dj} - ishchi va xodimlarning joriy davrdagi real daromadlari qiymati; R_{Do} - ishchi va xodimlarning oldingi davrdagi real daromadlari qiymati.
5	Ishchi va xodimlarning ishdan bo'shatilganlik ko'effitsiyenti	$I_{Xb.k} = I_{Xj} / I_{Xo}$	I_{Xj} – joriy yildagi bo'shatilgan ishchi va xodimlar soni; I_{Xo} – yil oxiridagi ishchi va xodimlar soni.

Bunday baholashni amalga oshirish orqali baholanayotgan raxbar xodimlarning boshqaruv uslubi samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratiladi va ushbu uslub orqali qurilish sanoati korxonalarining mavjud boshqaruv imkoniyatlaridan qanchalik to'liq foydalanayotganligi to'g'risida umumiy xulosaga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, biz tomondan qurilish sanoati korxonalarining boshqaruv salohiyatini aniqlashda foydalilik ko'effitsiyenti, ehtimoliy boshqaruv salohiyati, mehnatning manfaatliliigi, ishchi va xodimlar real daromadi hamda ishdan bo'shatilganlik ko'effitsiyentlari bo'yicha baholashning vertikal hamda gorizontaal tahlil usullari taklif etilgan.

Korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash orqali ularning ichki imkoniyatlari, iqtisodiy qudrati va tashqi imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Shunday ekan, bizningcha korxonalar iqtisodiy salohiyatini belgilovchi yagona me'yoriy ko'effitsiyent mavjud bo'lishi talab etiladi. Bizningcha ushbu ko'rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, iqtisodiy salohiyatni tashkil etuvchi barcha ko'rsatkichlarning umumiy integral ko'effitsiyenti orqali ifodalanishini anglatadi. Ushbu ko'rsatkich qurilish sanoati korxonasi (5)-iqtisodiy salohiyati tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, mehnat, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy salohiyat turlarining o'rtacha integral ko'rsatkichi sifatida keltirilgan.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan..

$$IS_{qk} = (M_s * Ichs * Mar_s * Meh_s * IN_{sqk} * B_{Sbk} * Ims)^{1/7} \quad (5)$$

Mazkur formula asosida qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyatining umumiy yagona qiymati hosil qilinadi va qurilish korxonasi iqtisodiy rivojlanganlik holatini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobida “O‘zbekiston Respublikasi qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyati tahlili”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda O‘zbekistonda qurilish tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy holati o‘rganilgan. Shu bilan birga turli mulkchilik shakllariga ega qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlil qilingan hamda qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning ko‘p omilli ekonometrik modeli yaratilgan.

Bugungi kunda qurilish tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur‘atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Biz tomondan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda vertikal hamda gorizontallik usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlar davomida yuqorida keltirilgan yondashuvga asosan iqtisodiy ko‘rsatkichlarni iqtisodiy manfaatdorlik koeffitsiyenti bo‘yicha tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Quyida keltirilgan 4-jadval ma‘lumotlaridan shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan 2012-2021 yillarda qurilish tarmog‘ining o‘sishi jadal sur‘atlar bilan amalga oshgan.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari¹¹

Yillar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	O‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti
YAIM (mlrd. so‘m)	127590,2	153311,3	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	424728,7	529391,4	602193	734587,7	1,22
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	11753,9	15219,3	20060,4	25423,1	29413,9	34698	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	1,28
Sanoat maxsulotlari hajmi (mlrd. so‘m)	57552,5	70634,8	84011,6	97598,2	111869	148816	235341	322536	368740	456056,1	1,26
Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd. so‘m)	58549,3	69391,3	85101,7	103302	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9	261892,2	317027,6	1,21
Bandlar soni (ming kishi)	12223,8	12523,3	12818,4	13058,3	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	1,01
Qurilish tarmog‘ida ish bilan bandlar soni (ming kishi)	1105,7	1144	1183,3	1222,2	1263,6	1290	1205,5	1324,6	1305,6	1350,8	1,02
Aholining umumiy daromadlari (mlrd. so‘m)	104263	126268	146392,9	169344,3	197962,4	236893,1	300842,7	365735,6	420338,3	515660,7	1,20

O‘rganilayotgan davrda qurilish tarmog‘ining o‘sishi sur‘atlari o‘rtacha

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chikilgan.

manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,28 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin va bu ko‘rsatkich iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori o‘shish o‘shish sur‘atiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida ushbu davrda mamlakatda YAIM manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti ham 1,22 ga teng bo‘lganligini kuzatish mumkin. Qolaversa o‘rganilayotgan davrda sanoat tarmog‘ida manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,26 ga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,21 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Bu ham shuni anglatadiki, bugungi kunda qurilish tarmog‘ining tez sur‘atlar bilan ortib borishi va barcha boshqa yirik tarmoqlardanda tez rivojlanish va manfaatdorlik ko‘rsatkichiga ega hisoblanmoqda. Keltirilgan davrda doimiy aholi sonining ortib borishi manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo‘lganligini, iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar sonining ortib borishi manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,01 ga teng bo‘lganligi, aholining umumiy daromadlari miqdori manfaatdorligi o‘rtacha koeffitsiyenti 1,17 ga teng bo‘lganligi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdori manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,18 ga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Navbatdagi keltirilgan 5-jadvalda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi foiz ko‘rinishida va ularning o‘zgarishi koeffitsiyentlarda keltirilgan bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun, asbob uskunalar va jihozlar uchun va boshqa barcha kapital ishlari hamda xarajatlari uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar foiz hamda koeffitsiyent ko‘rinishida keltirilgan.

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi¹²

	2013		2014		2015		2016		2017		2018		2019		2020		2021	
	foiz	koef.																
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami:	100	1,25	100	1,23	100	1,19	100	1,14	100	1,41	100	1,72	100	1,58	100	1,07	100	1,21
Shu jumladan:																		
Qurilish montaj ishlari	48,7	1,04	49,7	1,02	51,5	1,04	51,0	0,99	52,0	1,02	53,4	1,03	44,6	0,84	40,2	0,90	43,4	1,08
Asbob uskuna va jihozlar	33,4	0,92	35,2	1,05	32,3	0,92	31,6	0,98	34,4	1,09	32,9	0,96	43,8	1,33	52,1	1,19	49,5	0,95
Boshqa kapital ishlari va xarajatlar	17,9	1,07	15,1	0,84	16,2	1,07	17,4	1,07	13,6	0,78	13,7	1,01	11,6	0,85	7,7	0,66	7,1	0,92

E‘tiborli jihat shundaki mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi ya‘ni qurilish-montaj ishlari uchun kiritilgan investitsiyalar 2013-2021 yillar davomida doimiy o‘shish ko‘rsatkichini namoyon etmagan, aksincha eng yuqori ko‘rsatkich 2017 yilda tashkil etgan bo‘lib keyingi davrda

¹² O‘zbyekiston Ryepublikasi Davlat Statistika Ko‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bir muncha kamayganligini ya'ni 2013 yilda 48,7 foiz, 2017 yilda 52,0 foiz va 2021 yilda 43,4 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Mos ravishda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manfaatdorligining o'zgarish koeffitsiyentlari ham turli davrlarda turlicha bo'lib 2013 yilda 1,04 ga, 2017 yilda 1,02 koeffitsiyentga va 2021 yilda 1,08 koeffitsiyentga teng bo'lgan.

Shu bilan birga asbob uskuna-jihozlar uchun kiritilgan investitsiyalar miqdori esa ortganligini, ya'ni 2013 yilda 33,4 foiz, 2017 yilda 34,4 foiz va mos ravishda 2021 yilda 49,5 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari manfaatdorlikning o'zgarish koeffitsiyentlari ham turli 2012 yilda 0,92 koeffitsiyentga, 2017 yilda 1,09 va 2021 yilda bu ko'rsatkich 0,95 koeffitsiyentga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar¹³

(amaldagi narx bo'yicha indeksda)

	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	O'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti
Jami	1,25	1,23	1,19	1,14	1,41	1,72	1,58	1,07	1,21	1,28
Shu jumladan:										
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1,14	1,23	1,17	1,06	1,27	1,31	1,53	1,21	1,18	1,20
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash	1,45	1,51	1,39	0,74	1,98	1,13	1,25	1,17	1,37	1,31
Ishlab chiqaradigan sanoat	1,10	1,17	1,12	1,68	1,36	2,10	1,98	1,10	1,12	1,38
Elektr,gaz,bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1,36	1,28	1,33	1,21	2,01	2,81	1,37	0,53	1,35	1,40
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1,74	1,29	1,03	1,61	1,34	2,75	1,46	0,91	1,04	1,47
Qurilish	1,51	4,30	0,58	0,88	1,53	1,79	2,83	1,40	1,52	1,67
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1,45	1,30	1,15	1,21	1,02	2,02	1,46	1,79	1,15	1,37
Tashish va saqlash	1,29	0,96	0,89	1,55	1,10	1,33	1,66	1,01	0,89	1,20
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1,19	1,35	1,07	1,95	0,59	3,12	1,55	0,98	1,07	1,41
Axborot va aloqa	1,13	1,03	1,21	1,11	1,75	0,83	1,67	3,35	1,21	1,40
Moliya va sug'urta faoliyati	0,83	1,30	1,88	0,68	2,32	1,31	1,74	1,79	1,88	1,39
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	1,01	1,65	0,80	0,56	1,10	2,69	1,80	1,28	0,80	1,31
Ta'lim	1,20	1,04	1,22	1,38	1,11	1,97	1,89	0,98	1,22	1,34
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,00	1,12	1,07	1,20	1,41	1,67	2,29	1,08	1,07	1,39
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,97	1,17	0,84	2,00	1,49	3,36	1,75	0,68	0,84	1,43
Turar joy qurilishiga investitsiyalar	1,29	1,20	1,28	1,03	1,18	1,77	1,04	0,94	1,28	1,21
Boshqa faoliyat turlari	1,17	1,26	1,13	1,54	1,70	1,72	1,60	1,02	1,13	1,34

Navbatdagi keltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar to'g'risida berilgan 6-jadval tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki,

¹³ O'zbyekiston Ryepublikasi Davlat Statistika Ko'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chikilgan.

o'rganilayotgan 9 yil davomida eng yuqori manfaatdorlik koeffitsiyentiga ega tarmoq bu qurilish tarmog'i bo'lib mazkur koeffitsiyent 1,67 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu ham barcha tarmoq va sohalar orasida so'ngi yillarda qurilish tarmog'iga kiritilgan investitsiyalarning yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi (6-jadval).

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini nisbiy ko'rsatkichlar shaklida taqdim etadigan ma'lumotlarning vertikal (tarkibiy) tahlili katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Vertikal tahlil har bir hisobot davrida o'tkazilishi talab etiladi. Jumladan, bizningcha korxonaning iqtisodiy salohiyatining vertikal tahlili orqali uning tarkibiy tuzilishi to'g'risida kengroq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati yuzaga keladi. Vertikal tahlilning maqsadi korxonaning iqtisodiy salohiyatini hisoblash va uning o'zgarishini baholashdir. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida korxonaning iqtisodiy tahlilini korxonaning manfaatdorligi jihatidan amalga oshirishga harakat qilamiz. Jumladan 2019 yildagi korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari 2018 yilga nisbatan o'zgarishi jihatidan tahlil qilingan, mos ravishda 2020 yildagi korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari 2019 yilga nisbatan o'zgarishi tahliliy o'rganilgan va 2021 yildagi korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari 2020 yilga nisbatan o'zgarishi korxonaning manfaatdorlik koeffitsiyentlari bo'lib unda har bir ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilinayotgan davrda manfaatdorlik koeffitsiyentlari hisoblangan.

Oldingi bobda keltirilgan bo'linish me'zonlariga asosan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha korxonalarining manfaatdorlik koeffitsiyentlari 1dan kichik bo'lganda rivojlanish darajasi past darajada, 1 ga teng bo'lganda me'yoriy rivojlanish darajasiga ega ekanligi va 1 dan yuqori bo'lganda yuqori rivojlanish ko'rsatkichiga ega ekanligini aytish mumkin bo'ladi. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarining tahlil qilinishi natijasida shuni aytish mumkinki, mulkchilik shakllari bo'yicha aralash va xususiy mulkchilik shakllariga ega hamda turlicha aylanma mablag'larga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari, jumladan «Trest 12» AJ, Remstroykomplekt Invest Injining MCHJ qo'shma korxonasi va ABBOS SIFAT QURILISH MCHJ korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan (7-jadval).

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, bunda barcha uchala qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati tahlili ularning rivojlanishida yuqori manfaatdorlik mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari har uchala qurilish sanoati korxonalarini orasida eng yirik moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatga ya'ni iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan qurilish sanoati korxonasi sifatida «Trest 12» aksiyadorlik jamiyatini keltirish mumkin va shu bilan birga eng kichik iqtisodiy salohiyatga ega qurilish sanoati korxonasi sifatida ABBOS SIFAT QURILISH mas'uliyati cheklangan jamiyatini aytish mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish lozimki, fikrimizcha manfaatdorlik koeffitsiyentlari asosida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda ushbu korxonaning moliyaviy mablag'lari miqdori, ishchi kuchi soni va shu kabi boshqa ma'lumotlari asosida ularni ham kichik, o'rta va yirik korxonalarga ajratish

7-jadval

Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot¹⁴

Ko'rsatkichlar	2019 yil			2020 yil			2021 yil			Manfaatdorlikning o'rtacha o'zgarish koeffitsiyentlari		
	«Trest 12»AJ	Remstroy kompleks Invest Injiniroing MCHJ QK	ABBOS SIFAT QURIL ISH MCHJ	«Trest 12» AJ	Remstroy kompleks Invest Injiniroing MCHJ QK	ABBOS SIFAT QURIL ISH MCHJ	«Trest 12» AJ	Remstroy kompleks Invest Injiniroing MCHJ QK	ABBOS SIFAT QURIL ISH MCHJ	«Trest 12» AJ	Remstroy kompleks Invest Injiniroing MCHJ QK	ABBOS SIFAT QURIL ISH MCHJ
Qurilish ishlari hajmi,	1,16	1,18	1,59	1,40	1,24	1,29	1,41	0,56	1,32	1,32	0,99	1,40
Olingan sof foyda	1,23	1,47	1,59	0,75	1,83	1,29	0,75	0,75	1,32	0,91	1,35	1,40
Mehnat resurslari soni	1,15	1,47	1,26	1,20	1,97	1,20	1,21	1,01	1,22	1,19	1,48	1,23
Shundan:												
Doimiy ishchi va xodimlar soni	1,15	1,47	1,15	1,20	1,97	1,09	1,21	1,01	1,09	1,19	1,48	1,11
Mavsumiy ishchilar soni	-	-	1,36	-	-	1,29	-	-	1,31	-	-	1,32
Ishchi va xodimlar orasida sug'urtalanganlar soni	1,15	1,00	1,15	1,20	2,56	1,09	1,21	0,96	1,09	1,19	1,51	1,11
Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori	1,40	1,14	1,57	1,11	1,13	1,00	1,13	1,26	1,18	1,21	1,18	1,25
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	1,16	1,84	1,47	1,13	2,04	1,29	1,13	1,50	1,31	1,14	1,79	1,36
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	0,93	1,98	1,47	1,04	2,70	1,29	1,05	0,98	1,31	1,01	1,89	1,36
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	1,07	1,89	1,44	1,16	2,42	1,17	1,18	1,11	1,22	1,14	1,81	1,28
Ishdan bo'shaganlar soni	0,84	-	-	1,19	-	-	1,19	-	-	1,07	-	-
Iqtisodiy salohiyat koeffitsiyenti	1,1	1,5	1,4	1,1	2,0	1,2	1,1	1,0	1,2	1,10	1,50	1,27

¹⁴ Qurilish korxonalarini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

maqsadida 0,5-1,0 koeffitsiyent-kichik korxonalar, 1,0-1,5 koeffitsiyent -o'rtacha korxonalar va 1,5-2,0 koeffitsiyent yirik korxonalar uchun belgilash kiritish maqsadga muvofiq.

Barcha hollarda korxonalar kapitalining likvidlik qiymati mavjud foydani kapitallashtirish orqali hisoblab chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, foyda ko'rsatkichi manfiy bo'lgan korxonalar uchun minimal daromadga ega bo'lgan korxonalarni kiritish tavsiya etiladi, chunki bunday foydani kapitallashtirish kapitalning sezilarli darajada qisqarishini anglatadi. Bundan tashqari, mahsulot sotishdan emas, balki operatsion va operatsion bo'lmagan daromadlardan sof foyda olgan korxonalar ham norentabel bo'lishi mumkin, chunki bunday daromadlar davriy xarakterga ega tasodifiy va tez o'zgaruvchan omillar ta'siriga bog'liq hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan jadval tahlillaridan shuni xulosa qilish mumkinki, barcha qurilish sanoati korxonalari bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari umumiy bir biriga yaqin bo'lgan ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda. O'tkazilgan anketa so'rovlari natijasida eksperlar so'rovlari asosida hosil qilingan ko'rsatkichlarning ayrimlari bo'yicha qo'shimcha koeffitsiyent kiritish talab etiladi. Shu bilan birga qurilish sanoati korxonalarining ehtimoliy salohiyatini aniqlash natijalari shuni ko'rsatadiki "Trest 12" AJ qurilish sanoati korxonasining haqiqiy natijadan chetlanish o'rtacha ko'rsatkichi 0,1 teng bo'lib ehtimoliy salohiyati integral ko'rsatkichi 0,91 ga tengligi aniqlandi. "Remstroykomplekt Invest Injining" MCHJ QK qurilish sanoati korxonasining haqiqiy natijadan chetlanish o'rtacha ko'rsatkichi 0,24 teng bo'lib ehtimoliy salohiyat integral ko'rsatkichi 0,82 ga teng ekanligi va "ABBOS SIFAT QURILISH" MCHJ qurilish sanoati korxonasining haqiqiy natijadan chetlanish o'rtacha ko'rsatkichi 0,28 teng bo'lib ehtimoliy salohiyati integral ko'rsatkichi 0,71 ga tengligi aniqlandi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati koeffitsiyentini aniqlash bo'yicha biz tomondan keltirilgan formula, asosida yuqorida tahlil qilingan uchta qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati bo'yicha integral ko'rsatkichni aniqlab olamiz. Demak, "Trest 12" AJ qurilish sanoati korxonasining integral iqtisodiy salohiyat koeffitsiyenti

$$IS_{qk1}=(1,3*(3,2)*1,3*1,4*1,4*1,2*(1)*0,8*0,94)^{1/7}=1,35$$

1,35 ga bo'lganligi ko'rish mumkin. "Remstroykomplekt Invest Injining" MCHJ QK qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyati integral koeffitsiyenti

$$IS_{qk2}=(1,4*(0,7)*1,4*1,4*1,4*1,4*(0,5)*0,9*0,91)^{1/7}=1,04$$

1,04 ga teng bo'lganligini va "ABBOS SIFAT QURILISH" MCHJ qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyati integral koeffitsiyenti 0,86 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

$$IS_{qk3}=(1,3*(0,5)*1,26*1,3*1,32*1,32(0,5)*0,4*0,93)^{1/7}=0,86$$

Ushbu tahlillarning o'zi ham o'rganilayotgan qurilish sanoati korxonasi haqida obyektiv ma'lumotni yetarlicha taqdim eta olmaydi. Shuning uchun ekspertlar so'rovlari asosida shakllantirilgan koeffitsiyentlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridgi tahlil natijalari asosida qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini

boshqarishda korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo'yicha «yuqori» ($1,2 \leq I_s$), «barqaror» ($1,0 \leq I_s < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,7 \leq I_s < 1,0$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq I_s < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari ekspertlar xulosalari asosida shakllantirilgan.

Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyat koeffitsiyenti asosida ularning faoliyati ko'lamini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi me'zon ko'rsatkichi belgilanishi zarur. Jumladan, ushbu integral ko'rsatkich asosida qurilish sanoati korxonalarining nafaqat salohiyat ko'rsatkichi, balki uning qurilish obyektlarini qurish ishlarini olib borishda ham ushbu ko'rsatkichlar hisobga olinishi zarur. Shu bilan birga iqtisodiy salohiyat integral ko'rsatkichi 1,5 koeffitsiyentdan past bo'lgan qurilish sanoati korxonalarini uchun obyektlarni qurish ruxsati berilmasligi maqsadga muvofiqdir.


Dissertatsiya ishining **“Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida iqtisodiy salohiyatni oshirish asosida qurilish sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini rivojlangtirish yo'nalishlari keltirilgan, qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish orqali sinergetik samaradorlikni oshirish yo'llari belgilangan hamda qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini shakllantirish ssenariylari keltirilgan.

Har bir hududda yirik qurilish korxonalarini doirasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish lozim bo'lib va shu bilan birga ushbu klasterlar o'z ichiga ishchi va xodimlar xavfsizligini sug'urtalash tizimini ham qamrab olishi talab etadi. O'z navbatida qo'shilgan qiymat zanjiri deganda mahsulotni ishlab chiqarilgan paytdan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, shu jumladan ishlab chiqish va loyihalash jarayonlari, xom ashyo etkazib berishni ta'minlash, mahsulot marketingi va sotuvni tashkil etish shuningdek sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish nazarda tutilsa, bunda barcha jarayonlarda yaratilgan qiymat qo'shib ortib boraveradi. Mahsulot ushbu zanjirdagi barcha jarayonlardan ma'lum tartibda shakllanadi va har bir jarayon davomida qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bundan tashqari, butun zanjirdan davomida, mahsulot barcha jarayonlar qiymatlari yig'indisidan kattaroq qiymatlarga ega bo'ladi.

Klasterlarni tashkil etishning bugungi kunda bir qancha variantlari mavjud bo'lib unda korxonalar va tashkilotlarning ixtiyoriy ravishda birlashishi asosida tashkil etilishi, keyingi variant sifatida davlat organlarining maqsadli iqtisodiy siyosati yordamida amalga oshiriladi. Biz tomondan taklif etilgan “Trest 12” AJ qurilish sanoati korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish qurilish sanoati korxonalarining o'zaro hamkorligi asosida sinergetik iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi (2-rasm).

Ushbu klaster qurilish-pudrat tashkiloti sifatida “Trest 12” AJ qurilish sanoati korxonasi, loyixakidiruv tashkilotlari, davlat korxonalarini (qurilish jarayoniga mas'ul tashkilotlar), qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, ilmiy tadqiqot faoliyati

bilan shugʻullanuvchi oliy taʼlim muassasalarining oʻzaro hamkorlik aloqalarining tashkil etilishi hamda sugʻurta tashkilotlari faoliyatini uygʻun shakllantirish taklif etilmoqda.



2-rasm. 12-Trest AJ qurilish korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish¹⁵.

Bunda qurilish korxonasi tomonidan qurilish ishlarini tashkil etish amalga oshirilsa, loyiha-qidiruv tashkilotlari tomonidan loyihalashtirish ishlari amalga oshiriladi, maxsulot marketingi va uning realizatsiyasi tashkilotlari maxsulot sotilishi va zaruriy xujjatlar bilan shugʻullansa, qurilish maxsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar esa oʻz navbatida sifatli qurilish maxsulotlari ishlab chiqarish va ularni yetkazib berish

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

faoliyatini o'z zimmasiga olishadi, sug'urta tashkilotlari avvalambor ishchi va xodimlar sog'lig'i bilan bog'liq masalalarni sug'urtalash va shu bilan birga maxsulot sug'urtasi masalalari bilan shug'ullanadi va ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan yetuk mutaxassis kadrlarning qurilish jarayoniga jalb qilinishi hamda innovatsion maxsulotlar ishlab chiqarilishiga olib keladi.

Korxonani boshqarish tizimi ishlab chiqarish jarayoni va boshqaruv qismlarini o'z ichiga oladi. Boshqarish tizimi doirasida nazorat subyekti va obyekt alohida ajratiladi va ular o'rtasida teskari aloqa yuzaga keladi. Boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga ta'siri murakkab boshqaruv mexanizmlarini qo'llash orqali, jumladan rejalashtirish, kengashish, vaziyatni baholash, tavakkalchilik, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tartibga solish hamda rag'batlantirish kabi mexanizmlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv jarayonida korxonaga kutilayotgan faoliyat natijalarini belgilaydi, so'ngra kutilgan va haqiqiy natijalar o'rtasida taqqoslash amalga oshiriladi. Agar haqiqiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar asosida hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlar korxonaga mos kelmasa, u holda korxonaning yanada samarali ishlashi uchun innovatsion muhitni yaratadigan zaif bo'g'inlarini aniqlashi kerak bo'ladi. Agar hisoblangan ko'rsatkichlar natijalari korxonani qoniqtirsa, u holda boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlarini moslashtirish asosida innovatsion muhitni yaratish va boshqaruv sifatini oshirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Mazkur mexanizm hujjatlashtirilgan yoki belgilangan amaliyot qoidalari asosida amalga oshiriladi. Qurilish sanoati korxonasini boshqarish jarayonida bir qator vazifalar hal etilishi talab etiladi, jumladan moliyaviy menejment, ishlab chiqarishni boshqarish, marketing boshqaruvi, innovatsion boshqaruv va xodimlarni boshqarishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirish orqali boshqarish xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish, korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlash kabi vazifalar bajariladi.

Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish muammosini hal qilish moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsion-investitsion, boshqaruv hamda ehtimoliy salohiyatlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, monitoring, nazorat qilish va baholash kabi boshqaruv funksiyalaridan foydalanish bilan bog'liq jarayonni o'z ichiga oladi (8-jadval).

Korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishning eng muhim bosqichlaridan biri, bu – uning holatini tahlil qilish va baholashdir. Buning uchun iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni aniqlash zarur bo'ladi.

Bizningcha, qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish funksiyalari sifatida rejalashtirish, kengashish va qaror qabul qilish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tavakkal qilish, motivatsiya ya'ni, rag'batlantirish, nazorat qilish, tartibga solish, baholash funksiyalarini keltirishimiz mumkin.

Ajratib olingan natijaviy va unga ta'sir etuvchi omillarning barchasi 2012-2021 yillar davomida barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan.

Qurilish sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyatini boshqarish funksiyalari¹⁶

Salohiyat turlari	Boshqarish funksiyalari			
	Rejalashtirish, kengashish va qaror qabul qilish	Tashkil etish, muvofiqlashtirish, tavakkal qilish	Motivatsiya (rag'batlantirish)	Nazorat qilish, tartibga solish, baholash
Moliyaviy	Korxonada faoliyati uchun zaruriy mablag'lar jalb etishni rejalashtirish va qarorlar qabul qilish	Korxonaning moliyaviy mablag'larini muvofiqlashtirish va tashkil etish	Korxonaning moliyaviy resurslardan tejamkor foydalanishni rag'batlantirish	Moliyaviy resurslar sarfini monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy etish
Ishlab chiqarish	Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilish	Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini muvofiqlashtirish, va tavakkalchilik asosida tashkil etish	Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini xavfsiz va qulay mehnat sharoitlariga moslashtirish	Korxonaning ishlab chiqarish jarayoni sifatini nazorat qilish tizimini joriy etish
Marketing	Ishlab chiqariladigan maxsulot miqdorini rejalashtirish	Tashqi bozorni o'rganish, zaruriy marketolog xodimlar miqdorini aniqlash	Marketing xodimlari va mijozlar faoliyatini rag'batlantirish	Sotuv hajmini aniqlash va tovarning zaruriy narxini belgilash
Mehnat	Korxonada mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni hisoblash (ta'lim darajasi, yosh, ish staji va b.q.)	Korxonada mehnat resurslari ish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish	Korxonada mehnat resurslari ish faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish	Korxonada mehnat resurslari ish faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish va samaradorligini baholash
Innovatsion	Korxonaning ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, innovatsion-investitsion faoliyatini rejalashtirish va faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish	Innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish doirasida barcha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish	Innovatsion-investitsion faoliyatining rag'batlantirilishini ta'minlash	Innovatsion-investitsion faoliyat samaradorligini baholash, nazorat qilish va tartibga solish
Boshqaruv	Korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarishni tartibga soluvchi qoidalar va normalarni belgilash	Korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarishda tartibga soluvchi qoidalar, normalar va qoidalarning izchilligi va to'liqligi prinsipiga rioya qilish	Korxonadagi boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar, me'yorlar va qoidalarga rioya etilishi va to'g'ri bajarilishini rag'batlantirish	Korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarishni tartibga soluvchi qoidalar, normalar, me'yoriy hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish
Ehtimoliy	Korxonada faoliyatidagi tashqi va ichki ta'sirlar asosida shakllanadigan risklarni aniqlash	Ehtimoliy salohiyat sifatida tashqi va ichki ta'sirlar asosida shakllanadigan risklarni baholash	Tashqi va ichki ta'sirlar asosida shakllanadigan risklar darajasini kamaytirish bo'yicha rag'batlantirish tizimini joriy qilish	Korxonada faoliyatidagi tashqi va ichki ta'sirlar asosida shakllanadigan risklar darajasini kamaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Ajratib olingan asosiy omillarning bog'lanishi asosida yuz berayotgan o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi $r=0,9999$ ga, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9997$ ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Jadvaldagi ko'rsatkichlar tuzilgan ekonometrik modelning sifat xususiyatlari hamda ko'rsatkichlarning bog'lanish sifati yuqori darajada ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Fisher me'zoni ahamiyati bog'liq bo'lgan VAR, Akiakey xabarot me'zoni, Shvars me'zoni, Xannan-Kuin me'zoni me'yoriy oraliqlarda joylashgan, faqat Darbin-Uotson me'zoni optimal oraliq bo'lgan 2 dan bir oz kichik. Bunga sabab sifatida ta'sir etuvchi omillar tarkibidagi ayrim omillarning mohiyat jihatidan bir-birini to'ldirishini ko'rsatib o'tish mumkin (9-jadval).

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

9-jadval

**Turli mulkchilik shakllariga ega qurilish sanoati korxonalarining
iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari prognozi¹⁷**

Ko'rsatkichlar	Me'yoriy darajasi	2021	Vari-ant	Yillar bo'yicha prognoz			2025 nisbatan 2035 y.da, % da
				2025	2030	2035	
“Trest 12” AJ							
Moliyaviy salohiyat	min 1,2	4,16	1	4,12	4,64	5,45	132,3
			2	4,42	4,94	5,71	129,2
			3	4,51	5,12	5,84	129,5
Ishlab chiqarish salohiyati	min 1	1,3	1	1,74	1,83	1,92	110,3
			2	1,12	1,32	1,43	127,7
			3	1,32	1,54	1,62	122,7
Marketing salohiyati	min 1,3	1,4	1	1,93	1,92	4,0	207,3
			2	1,23	1,32	1,41	114,6
			3	1,42	1,52	1,61	113,4
Boshqaruv salohiyati	min 1,5	1,4	1	1,61	1,83	1,92	119,3
			2	1,13	1,31	1,43	126,5
			3	1,34	1,52	1,62	120,9
Mehnat salohiyati	min 1	1,2	1	1,21	1,24	1,31	108,3
			2	1,32	1,53	1,65	125,0
			3	1,53	1,71	1,82	119,0
Innovatsion salohiyat	min 0,4	0,7	1	0,71	0,91	1,0	140,8
			2	1,12	1,32	1,43	127,7
			3	1,23	1,43	1,52	123,6
“Remstroykomplekt Invest Injining” MCHJ QK							
Moliyaviy salohiyat	min 1,2	0,98	1	1,12	1,52	2,07	184,8
			2	1,56	1,94	2,43	155,8
			3	1,81	2,12	2,73	150,8
Ishlab chiqarish salohiyati	min 1	1,4	1	1,32	1,23	1,32	100,0
			2	1,44	1,52	1,71	118,8
			3	1,82	1,83	1,91	104,9
Marketing salohiyati	min 1,3	1,4	1	1,21	1,32	1,22	100,8
			2	1,42	1,41	1,47	103,5
			3	1,52	1,73	1,63	107,2
Boshqaruv salohiyati	min 1,5	1,4	1	1,47	1,24	1,51	102,7
			2	1,82	1,32	1,83	100,5
			3	1,86	1,51	1,91	102,7
Mehnat salohiyati	min 1	0,7	1	0,91	1,22	1,31	144,0
			2	1,11	1,64	1,73	155,9
			3	1,43	1,82	1,93	135,0
Innovatsion salohiyat	min 0,4	0,8	1	0,71	0,84	0,91	128,2
			2	0,84	1,32	1,42	169,0
			3	1,21	1,51	1,73	143,0
“ABBOS SIFAT QURILISH” MCHJ							
Moliyaviy salohiyat	min 1,2	0,65	1	0,91	1,19	1,32	145,1
			2	1,19	1,32	1,87	157,1
			3	1,32	1,53	2,21	167,4
Ishlab chiqarish salohiyati	min 1	1,26	1	1,20	1,36	1,47	122,5
			2	1,38	1,52	1,66	120,3
			3	1,5	1,71	1,82	121,3
Marketing salohiyati	min 1,3	1,3	1	1,03	1,21	1,36	132,0
			2	1,19	1,82	2,32	195,0
			3	1,24	1,42	1,61	129,8
Boshqaruv salohiyati	min 1,5	1,32	1	1,12	1,35	1,51	134,8
			2	1,32	1,51	1,67	126,5
			3	1,46	1,67	1,78	121,9
Mehnat salohiyati	min 1	0,66	1	0,92	1,08	1,21	131,5
			2	1,23	1,42	1,61	130,9
			3	1,45	1,62	1,78	122,8
Innovatsion salohiyat	min 0,4	0,4	1	0,51	0,64	0,91	178,4
			2	0,84	1,22	1,52	181,0
			3	1,01	1,44	1,76	174,3

¹⁷ Qurilish sanoati korxonalarini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda milliy iqtisodiyotning xizmatlar sohasida yaratilgan xizmatlar hajmi unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishini ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$y = 0,012 \cdot x_3 + 38,758 \cdot x_4 + 2,793 \cdot x_6 - 10137,564 \quad (6)$$

(6)-regressiya tenglamasi tuzildi.

Qurilish sanoati korxonalarida har xil ssenariylarni boshqalaridan prinsipial farqlashni belgilaydigan muqobillar sifatida o'sishning ustunlik qiluvchi manbalari, rivojlanishning cheklangan resurslarini taqsimlashdagi ustuvorliklar, iqtisodiyotda davlat ishtiroki ko'lamlari, talab etiladigan iqtisodiy islohotlarning izchilligi va tarkibini alohida baholash zarur bo'ladi. Odatda, korxonalarining o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshiradigan ssenariylarni ishlab chiqishda iqtisodiyot rivojlanishining shakllangan tartibi, trendlari va manbalari, shuningdek, har biri investitsiya oqimlari o'zgarishi va yangi uzoq muddatli o'sish manbalari yaratilishiga jamiyatning say-harakatlari jamlanishini taqozo etadigan bir qancha muqobil ssenariylar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, turli mulkchilik shakllariga ega qurilish sanoati korxonalarining eng yaqin – 2025 yilgacha, o'rtacha – 2030 yilgacha va eng uzoq – 2035 yilgacha bo'lgan muddatlardagi prognozlarga pessimistik, optimistik va dinamik rivojlanish ssenariylarini ta'kidlashimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida "Trest 12" AJ, "Remstroykomplekt Invest Injining" MCHJ QK va "ABBOS SIFAT QURILISH" MCHJ qurilish sanoati korxonalarining ssenariylari ishlab chiqildi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish mamlakatimizda innovatsion siyosatini kelgusi davrlarda takomillashtirishda va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ilmiy prognozni amalga oshirishda, dissertant tomonidan natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarish tendensiyasini aniqlash yo'li bilan "Trest 12" AJ, "Remstroykomplekt Invest Injining" MCHJ QK va "ABBOS SIFAT QURILISH" MCHJ qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarish dinamikasi va uning 2035 yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

XULOSA

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va tabiiy muhitning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini birlashtirgan murakkab tizimdir. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyati – bu qurilish sanoati korxonasining faoliyat samaradorligi va rivojlanishi xarakteristikasi bo'lib, tahlil obektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari tizimidir. Bu esa qurilish sanoati korxonasi tashqi muhitga bog'liq holda o'zaro ta'sir jarayonida tayyor qurilish mahsulotlariga (xizmatlariga) bo'lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud

resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning qobiliyatini anglatadi.

2. Qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyati uslubiy yondashuvga ko'ra faqat mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi "iqtisodiy salohiyat" tushunchasining mazmuni ehtimoliy salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda, qurilish sanoati korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari tizimi, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisi sifatida qqrqsh taklif etilgan.

3. Bizga ma'lumki iqtisodiy qonunlar sifatida "chekli naflilikning kamayib borish" qonuniga asosan insonning bir davriylik davomidagi barcha harakatlarining nafliligi kamayib boradi, lekin bizningcha umumiy davriylikda inson manfaatlari naflilikning kamayib borishidan farqli o'laroq ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa shu bilan izohlanadiki, har bir inson har qanday hodisa va jarayonlarga o'z manfaati ustunligi jihatidan yondashadi, shu bilan birga insonning manfaatiga mos bo'lmagan hodisa va jarayonlar tugatiladi yoki yo'qlikka yuz tutadi. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda agarda inson birgina omil ya'ni moddiy manfaat bilan chegaralanganda uning ushbu moddiy boylikdan oladigan manfaati oshib boradi va undan qoniqish miqdori kamayib boradi degan nazariy xulosaga kelishimiz mumkin. Bu holatda inson moddiy boylikning ortishi bilan undan oladigan qoniqish miqdori kamayib borishini nazariy jihatdan asoslash mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha insonlar moddiy boylikdan oladigan umumiy manfaati ortib borishi va shu bilan birga undan oladigan qoniqish miqdori ya'ni chekli qoniqish miqdori ham ortib boradi degan xulosaga kelishimiz mumkin va bundan umumiy manfaatning ortishib borishi iqtisodiy qonunining yuzaga kelishi zarurati paydo bo'ladi.

4. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va boshqarishda avvalambor iqtisodiy manfaatlar nuqtai narazidan yondashuv amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki taklif etilayotgan baholash me'zonlari asosida qurilish sanoati korxonalari faoliyatini yuqori aniqlikda prognoz qilish va mavjud kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy manfaatdorlik indekslarini qo'llash orqali korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holatini yaxshiroq o'rganish imkoniyatini yaratadi. Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati natijasida umumiy manfaatning ortib borishi iqtisodiy qonunining yuzaga kelishi va manfaatdorlikning ortib borishi bilan moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy salohiyatlarini iqtisodiy salohiyat sifatida baholash zarur hisoblanadi.

5. Korxonalar iqtisodiy salohiyatini aniqlashda va uning samaradorligini baholashda o'rganiladigan ko'rsatkichlar va tasniflash guruhlarining optimal sonini aniqlab olish zarur. Qurilish sanoati korxonasining iqtisodiy salohiyatini ifodalashda yagona ko'rsatkichdan foydalanish lozim va bu ko'rsatkich orqali korxonaning umumiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish kerak bo'ladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini aniqlash orqali uning ichki imkoniyatlari, iqtisodiy qudrati va tashqi imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Shunday ekan, bizningcha korxonada iqtisodiy salohiyatini belgilovchi yagona me'yoriy koeffitsiyent mavjud bo'lishi talab etiladi. Bizningcha ushbu ko'rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, iqtisodiy salohiyatni tashkil etuvchi barcha ko'rsatkichlarning umumiy integral koeffitsiyenti orqali ifodalanishini anglatadi.

$$IS_{qk} = (M_s * I_{chs} * Mar_s * Meh_s * IN_{sqk} * Bs_{bk} * I_{ms})^{1/7}$$

Mazkur formula asosida korxonaning iqtisodiy salohiyatining umumiy yagona qiymati hosil qilinadi va ushbu ko'rsatkich ushbu korxonaning iqtisodiy holati va iqtisodiy rivojlanish imkonini belgilab beradi.

Iqtisodiy salohiyatni baholashda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va innovatsion salohiyatlarini integral baholash zarur.

6. Iqtisodiy salohiyatni boshqarishda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy salohiyatlarini integral baholash bo'yicha «yuqori» ($1,2 \leq I_s$), «barqaror» ($1,0 \leq I_s < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,7 \leq I_s < 1,0$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq I_s < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan innovatsion salohiyati mohiyati va omillarining asosiy xususiyatlari sifatida korxonaning innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va joriy etish qobiliyati, innovatsion salohiyatni baholashda ko'rsatkich va korxonada faoliyati natijasi o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari belgilash, korxonaning innovatsion salohiyatini baholash usulini ko'rsatkichlarning "asosiy" darajasidan kelib chiqqan holda qurish maqsadga muvofiqdir. Baholash ko'rsatkichlarining bazaviy darajasining o'zgarishi haqiqiy qiymatning o'zgarishiga olib kelganligi sababli uni baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

8. Qurilish sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini amalga oshirish qobiliyati, uning ko'lami va miqdorini belgilovchi omillar sifatida korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati, korxonaning texnikaviy salohiyati, innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati va innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyatidir. Shuning uchun korxonaning innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi funksional guruhlarni korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati orqali ushbu korxonadagi ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishchi va xodimlar, ilmiy darajaga ega ishchi va xodimlar va korxonada bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'rsatkichlari sifatida umumlashtirilishi zarur hisoblanadi.

9. Qurilish obyektlarini ro'yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish asosida qurilish tarmog'ini boshqaruv idoralari real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish taklif etilgan.

10. Qurilish sanoati korxonalarining boshqaruv salohiyatini aniqlashda foydalilik

koeffitsiyenti, ehtimoliy salohiyat, mehnatning manfaatliligi, ishchi va xodimlar real daromadi hamda ishdan bo'shatilganlik koeffitsiyentlarini vertikal tahlil usuli bo'yicha baholash zarur. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan boshqaruv salohiyatini baholash quyidagi ikkita asosiy maqsadga ega bo'lib, bular ma'muriy, axborot-motivatsion maqsadlardir. Korxonaning boshqaruv salohiyatini baholashda har bir omil darajasini 0 va 1 oralig'idagi koeffitsiyentlar ko'rinishida ifodalash lozim. Natija ko'rinishida barcha omillarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichlarini hosil qilish orqali aniqlanadi.

11. Har bir hududda bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

12. Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini boshqarish funksiyalari sifatida rejalashtirish, kengashish va qaror qabul qilish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tavakkal qilish, motivatsiya ya'ni, rag'batlantirish, nazorat qilish, tartibga solish, baholash funksiyalarini keltirishimiz zarur. Shundan kelib chiqqan holda qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini, jumladan moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsion-investitsion, boshqaruv hamda ehtimoliy salohiyatlarini boshqarish funksiyalaridan to'g'ri foydalanish talab etiladi.

13. Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq sifat yo'nalishlarini kompleks baholash, ular faoliyatini tashkil etish hamda korxonalar iqtisodiy salohiyati transporentligini ta'minlashning qator modellari, blok-sxemalari ishlab chiqilgan;

14. Qurilish sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda ularda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning samarali vositalaridan foydalanish asosida 2035 yilga qadar rivojlanish ssenariylari ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 15/31.12.2020.I.09.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ИСМАИЛОВ АКМАЛ МАХСУДОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ
СТРОИТЕЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ**

08.00.13 – Менеджмент

**АВТОРЕФЕРАТ
докторской диссертации (DSc) по экономике**

Ташкент-2023 год

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего Образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № В2023.1.DSc/Iqt465.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tstu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: **Нурибетов Равшан Ибрагимович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Тураев Баходир Хатамович**
доктор экономических наук, профессор
Хошимов Акрам Абдиевич
доктор экономических наук, профессор
Хонкелдиева Гузал Шеровна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится « ___ » _____ 2023 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.12.2020.1.09.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, город Ташкент, улица Адилхужаева, дом 1. Тел/факс.: (99871) 293-57-54, e-mail: rector@tstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирована за № ___). (Адрес: 100167, город Ташкент, улица Адилхужаева, дом 1. Тел/факс.: (99871) 293-57-54).

Автореферат диссертации разослан « ___ » _____ 2023 года.

(реестр протокола рассылки № ___ от « ___ » _____ 2023 года)

О.К. Абдурахманов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

М.И. Акбаров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат экономических наук, доцент

Б. Х. Тураев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Интеграция и цифровизация экономики стран мира требует значительного увеличения использования экономического потенциала отраслей экономики и его эффективного управления. Эффективное управление экономическим потенциалом требует осуществления не только на уровне страны, но и на уровне предприятий. Одной из основных задач в данном направлении является повышение потенциала, обеспечивающего оптимальное развитие и функционирование современных предприятий строительной промышленности в постоянно меняющейся внешней среде. Повышение уровня использования экономического потенциала позволяет строительным предприятиям совершенствовать не только технологии, но и методы организации строительного процесса с целью получения дополнительных конкурентных преимуществ и занятия лидирующих позиций на рынке. В настоящее время в строительной отрасли происходит переход от инфраструктурных и промышленных объектов к жилой и коммерческой недвижимости. Это связано с стремительным процессом урбанизации. В частности, ожидается, что в период с 2021 по 2025 годы мировые расходы на строительство жилой и коммерческой недвижимости вырастут примерно на 17 трлн. долларов¹⁸. Это требует особого внимания к вопросам адекватной оценки и эффективного управления экономическим потенциалом предприятий строительной промышленности, действующих в нестабильных условиях экономических процессов.

В условиях стремительного развития цифровой экономики осуществляются научные исследования по изучению и оценке уровня экономического потенциала предприятий строительной отрасли. Формирование уровня экономического потенциала предприятий строительной отрасли, его количественная оценка, систематизация различных теоретико-методологических подходов, разработка комплексной системы развития с учетом характерных особенностей отрасли, организация хозяйственной деятельности предприятий, исследование роста интереса, совершенствование научно-методических основ оценки и управления экономическим потенциалом, дальнейшее улучшение конкурентной среды предприятий строительной отрасли являются одними из приоритетных направлений научных исследований в данной области.

Особое внимание уделяется эффективному использованию экономического потенциала как основного фактора экономического успеха в организациях и управлении современными предприятиями строительной промышленности Узбекистана.

Экономический потенциал предприятия является ключевым фактором его

¹⁸<https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#>:

успешного развития и конкурентоспособности. Он определяет способность предприятия эффективно использовать свои ресурсы для достижения поставленных целей и создания инновационных продуктов на рынке. Одной из основных задач управления хозяйственной деятельностью предприятия строительной промышленности Узбекистана является оптимизация использования экономического потенциала. Для этого нам необходимо разработать и внедрить эффективную стратегию, позволяющую максимально использовать наши ресурсы и возможности. Одним из важных аспектов управления экономическим потенциалом является разработка и внедрение инноваций. Однако для эффективной реализации задачи управления экономическим потенциалом необходимо усовершенствовать понятие «экономический потенциал» в теоретико-методологическом аспекте. Это позволит более точно определить и измерить экономический потенциал предприятия, а также разработать соответствующие стратегии и инструментальные методы управления.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 21 сентября 2018 года № УП-5544 «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы», от 27 ноября 2020 года № УП-6119 «Об утверждении стратегии модернизации, ускоренного и инновационного развития строительной отрасли Республики Узбекистан на 2021-2025 годы», постановлении Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2018 года № ПП-3698 «О дополнительных мерах по совершенствованию механизмов внедрения инноваций в отрасли и сферы экономики», от 23 мая 2019 года № ПП-4335 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов» а также других нормативно-правовых документах, касающихся данного направления.

